

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING BIOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA FANLAR INTEGRATSIYASI

Sharipova Dildora Rajabovna
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Biologiya kafedrasida o'qituvchisi.

Ushbu maqolada sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarning biologik kompetensiyalarini rivojlantirishda fanlar integratsiyasi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan .

Kalit soʻzlar: sinergetika, sistema, tizim, fanga oid kompetensiya, axloqiy kompetensiya, pedagogik mahorat, kompetentlik, qobiliyat, ko'nikma, sinergetik yondashuv.

В данной статье представлены сведения об интеграции предметов в развитии биологических компетенций студентов на основе синергетического подхода.

Ключевые слова: синергетика, система, система, научная компетентность, нравственная компетентность, педагогическое мастерство, компетентность, умение, умение, синергетический подход.

This article provides information about the technology for developing students' scientific competencies based on a synergetic approach.

Keywords: synergetics, system, system, scientific competence, moral competence, pedagogical skills, competence, ability, skill, synergetic approach

Globalashuv jarayonlarining muhim xususiyatlaridan biri bu zamonaviy ta'lim yo'nalishlari asosida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish bilan belgilanadi.

Ta'limda sinergetik yondashuv asosida o'quvchilar ning fanga oid kompetentligini rivojlantirish yangi yo'nalish lardan biri hisoblanib bunda o'quvchi shaxsining kompetentligi uning intellektual shaxs bo'lib yetishishi davomida o'z-o'zidan tashkillanuvchi sistemalardan tashkil topishini nazarda tutadi. Demak sinergetik yondashuv o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish davomida muayyan sistema yoki tizimlarni tuzishni nazarda tutadi. Bu borada fanga oid kompetensiya jihatidan qaraydigan bo'lsak ,o'quvchining bilim darajasini sinergetik yondashuv asosida rivojlantirish esa o'quvchining fanga oid kometentligini tizimlashtirilgan holda bosqichma – bosqich shakllantirib rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchi faoliyatining tuzilishi, mazmun va xusu siyatlarini bilmasdan turib, uning fanga oid kompeten siyalari, bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy

sifatlarini maqsadga muvofiq shakllantirish mumkin emas. O'quvchi faoliyatini o'rganishga bunday yondashuv metodologik jihatdan ham zarur. O'quvchining bilim darajasi va shaxsiga metodo logik yonda shish pedagogika fanining hozirgi taraqqiyot bosqichida faoliyat va shaxs tahlili nuqtayi nazaridan qarashni taqozo qiladi. Shu bilan birga, biz tanlagan tizimli yondashuv uni ham amaliy, ham muqarrar ehtiyojga aylantiradi. Jamiyati mizda ta'lim tizimini isloh qilishni takomillashtirish, uni modernizatsiyalanishi, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarning qo'llanilishi ta'lim tizimiga kompetensiyali yondashuvni talab qiladi.

Kompetentlik yondashuvi - ta'limda kompeten siyaviy yondashuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olishni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir. O'quvchilar umumta'lim muassasalarini tamomlagandan so'ng uzluksiz ta'lim tizimida o'qishini davom ettirish, kelgusida mustaqil hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobat bardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompeten siyalarga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, umumta'lim muassasalari zimmasiga ta'lim-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyalar, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirish vazifasi yuklatilgan.

Kompetensiyali yondashuvda – o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallash nazarda tutiladi;

Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko'ra darajalarga ajratiladi.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlay digan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat biologiya o'quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Adabiyotlar

tahlili o`quvchilarda tarkib toptiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratilishini ko`rsatdi.

Umumiy kompetensiyalar – umumta`lim muassasalari o`quv rejasidan o`rin olgan barcha o`quv fanlari mazmuni va o`qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi.

Xususiyy (biologik) kompetensiyalar – biologik ta`lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me`yorlangan bilim, ko`nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi.

Fanlararo kompetensiyalar- o`quv rejadan o`rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o`quv fanlarni o`qitishda o`zaro fanlararo bog`lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi. Biologiya fanidan o`quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo`yicha egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo`lay olish qobiliyatidir.

Xulosa qilib aytganda umumta`lim maktablarida o`quvchilarga biologik fanlarni o`qitish orqali sinergetik yondashuv asosida tayanch, xususiyy va fanga oid kompetensiyalarni uyg`unlikda rivojlantirib borish o`quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishiga zamin tayyorlaydi, shuningdek bilim samaradorligini tako millashtirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho`lpon” – 2011 y.
2. J.O.Tolipova “Pedagogik kvalimetriya moduli bo`yicha ma`ruzalar matni va amaliy mashg`ulotlar. Toshkent – 2015 y.
3. М.Н.Ибодова Биологияни ўқитишнинг интерфаол ва муаммоли изланиш методлари . Педагог журналы 11. 07. 2022 й
4. М.Н.Ибодова Биология дарсларини ташкил этиш технологияси. Услубий кўлланма. (Академик лицей 3920001 табиий фанлар тайёрлов йўналиши ўқувчилари учун мўлжалланган). 11. 08. 2022 й
5. М. N. Ibodova . Effectiveness of independent work in tne educational process. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. 10.10.2021г.